



XORAZM VOHASINING ANTIK DAVRI SHAHRLARI TARIXI

*Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
A.S.Sagdullayev
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zekiston Milliy
Universiteti tarix fakulteti 1-kurs magistranti
D.B.Tajimuratov*

Annotatsiya: Ushbu maqola Xorazm vohasining antik davr mil. avv IV-milodiy IV asrlar tarixiga bag'ishlangan bo'lib, antik shaharlarning o'rganilish bosqichlari, antik davrda mavjud bo'lgan shaharlar, 1990-yillargacha va mustaqillik davrida shaharlarni o'rgangan olimlar faoliyati, ular yozgan asarlar, antik Xorazm shaharlari haqida qisqacha va kerakli ma'lumotlar beriladi. Maqolada yana shaharsozlik va me'morchilik, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar haqida ham ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Antik shaharlar, Xorazm, Xorazm arxeologik ekspeditsiyalari, S.P.Tolstov, Jonbosqal'a, Ko'zaliqir, Oqshaxonqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Qo'rg'oshinqal'a, Kichik qirqizqal'a, Bozorqal'a, Qizil qal'a, Tuproqqa'l'a yodgorliklari, Shaharsozlik va me'morchilik, Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.

Xorazm ilk marta Doro I ning Bexistun kitobalarida va Avestoda eslatiladi⁷.

Zardishtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston va Xorazmnинг kadimgi tarixni o'rganishda qimmatli manba hisoblanadi⁸.

Gekatey Miletksiyda ham Xorazm haqida ma'lumot bo'lib, u Xorasmiyani parfiyaliklardan sharqda joylashgan Xorasmiya viloyatidagi yagona shahar sifatida tilga oladi⁹.

Gerodot ma'lumotlariga ko'ra Xorazm parfiyaliklar, sug'dlar va areyalar bilan birga XVI satrapiyaga kirgan va Doroga 300 talant xiroj to'lagan. Xorasmiyaliklar Kserksning Gretsiyaga yurishida ishtirok etishgan¹⁰.

Xorazm vohasi antik davr shaharlari tarixi nihoyatda qiziqarli. Qadimiy hududning joylashuviga alohida e'tibor berishimiz lozim.

Xorazm vohasi Turon past tekisligining markazida Qoraqum va Qizilqum oralig'ida, o'zbekistonning shimoliy-g'arbiy qismida, Amudaryo quyi oqimida


⁷ G'ayratdin. Xo'janiyazov. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari. Mil.avv VI asrdan milodiy IV asrgacha. Toshkent "O'zbekiston"; 2007-yil. 10-bet

⁸ Xorazm tariхи. 1-жилд. Урганч 1997-йил. 11-бет

⁹ Пьянков И. В. Хорасмии Гекатая Милетского 2-3 ст. //ВДИ.

№ 2. М., «Наука» 1972

¹⁰ G'ayratdin. Xo'janiyazov. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari. Mil.avv VI asrdan milodiy IV asrgacha. Toshkent "O'zbekiston"; 2007-yil. 10-bet.





joylashgan bo'lib, Amudaryo keltirgan allyuvial yotqiziqlardan, tashkil topgan qadimiy madaniyat maskanlaridan biri hisoblanadi.

Xorazm vohasi deganda biz hozirgi Xorazm viloyati, Turkmaniston Respublikasining Toshhovuz viloyati hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo, Beruniy, To'rtko'l, Ellikqal'a, Xo'jayli tumanlarini o'z ichiga olgan, umumiy maydoni 69,4 ming kv. km ni tashkil qilgan katta bir hududni tushunamiz¹¹.

Antik mualliflar qadimgi Xorazm qal'alalari to'g'risida deyarli hech qanday ma'lumot qoldirishmagan. Baqtriya bilan Sug'd mudofaa inshootlari to'g'risida Aleksandr yurishlar tarixi bilan bog'liq, mazmunan xilma-xil materialga ega bo'lsak, olis Xorazming faqat antik davri tarixi biz uchun mavhumligicha qolmoqda¹².

Xorazmning antik davr shaharlarining o'r ganilish tarixini ikki bosqichga ajratishimiz kerak.

1-bosqich XX asr 90-yillariga qadar amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar

2-bosqich Mustaqillik yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar.

Xorazm ekspeditsiyasining S. P. Tolstoy, Ya.G'. G'ulomov va E.A.Polyakovdan iborat tarkibdagi qidirish guruhi 1938-yilda ishni davom ettirdi¹³. Bu guruh 14 ta yodgorlikni tekshirdi. Qo'yqirilganqal'a, Qo'rg'oshinqal'a, Bozorqal'a, Jonbosqal'a, Qizilqal'a, 7 ta Tuproqqal'a, Katta va Kichik Qirqqiz, Anqaqal'a, Qo'ziqirilganqal'a tekshirildi. Bu ish natijasida mil. avv. IV asr — mil. IV asr yodgorliklari katta majmui va ularning sanasi aniqroq belgilandi¹⁴.

1939-yilda Xorazm ekspeditsiyasi arxealogik qidirish ishlarini uch yo'nalishda olib bordi. Natijada 16 ta yodgorlik arxeologik jihatdan tekshirildi¹⁵.

Bu arxeologik ekspeditsiyalarda S.P.Tolstov hissasi nihoyatda katta. U inson bu o'lkani sevar, uning tarixiy qimmatini yaxshi tushunar edi. "Qadimgi Xorazm" degan monumental asarida shunday deb yozadi: "Bu ekspeditsiya muallifning kelajakda qiladigan ishlarining yo'nalishini belgilab berdi. Xilma-xil tasodifiy vazifalar uning e'tiborini har qancha chalg'itmasin, bari bir o'ziga xos O'rta Osiyo "Misri"ning tarixi, etnografiyasi va arxeologiyasi bilan qiziqdi¹⁶. Olim 1937-1940-yillarda arxeologik izlanishlar olib bordi va "Xorazm sivilizatsiyasi" degan tushunchani arxeoligiya faniga olib kirdi.

Arxeologik tadqiqotlar uchun aviamarshrutlarning uzunligi 9000 km ga teng edi, 250 dan ortiq qadimiy shahar va qishloqlar ochildi va o'rganildi¹⁷.

¹¹ Xorazm tarixi 1-jild. Urganch 1997-yil. 29-bet

¹² G'ayratdin Xodjaniyazov. Qadimgi xorazm mudofaa inshootlari. Mil.avv VI asrdan milodiy IV asrgacha. Toshkent "O'zbekiston"; 2017-yil. 10-bet

¹³ G'ayratdin Xodjaniyazov. Qadimgi xorazm mudofaa inshootlari mil.avv VI asrdan milodiy IV asrgacha. Toshkent "O'zbekiston"; 2017-yil. 23-bet

¹⁴ Толстов С.П. Древнекорезмийские памятники в Каракалпакии (Предварительные итоги археологических работ ИИМК АН СССР и ККАССР в 1938 г.). //ВДИ. № 3. 1939 г

¹⁵ G'ayratdin Xodjaniyazov. Qadimgi xorazm mudofaa inshootlari mil.avv VI asrdan milodiy IV asrgacha. Toshkent "O'zbekiston"; 2017-yil. 24-bet

¹⁶ Толстов С. П., Древний Хорезм, М., 1948; с. 18.

¹⁷ Исо Жабборов. Древний Хорезм – страна высокой культуры и уникальной духовности (Этно-исторические очерки). Москва 2014 г. с27





S.P.Tolstov o'z tadqiqotlari bilan o'zbek xalqining asosini sharqdan ko'chib kelgan ko'chmanchi qabilalar emas, balki shu ko'hna maskanda ming yillar davomida o'troq hayat kechirib kelgan erli xalq – xorazmiylar, sug'diyilar, toxarlar, baqtriyaliklar hamda Amu va Sirdaryo bo'yalarida azaldan yashab chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan massaget - saklar tashkil etganligini isbot qildi.¹⁸

Xorazm vohasi antik davri tarixini o'rganishda S.P.Tolstov^{19 20}, A.V.Andrianov²¹, Nerazik²², M.G.Vorobeva^{23 24}, Y.A.Rapoport^{25 26 27 28}, B.I.Vaynberg^{29 30 31} singari olimlardan iborat bo'lgan Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari ulkan hissa qo'shganlar. Ularning izlanishlari va kashfiyotlari tufayli, Xorazm sivilizatsiyasi, qadimiy shaharlari, moddiy va ma'naviy madaniyat obidalari butun jahonga mashhur bo'ldi.

XX asrning 90-yillari va XXI asr boshlarida o'zbekistonlik qadimshunoslarning Xorazmdagi yangi arxeologik tadqiqotlarini qayd etib o'tish lozim (M.Mambetullayev^{32 33}, V.N.Yagodin^{34 35}, G'.Xodjaniyazov^{36 37}, Q.Sobirov³⁸, S.Baratov³⁹, A.Abdirimov).⁴⁰ Shaharsozlik va me'morchilik.

¹⁸ С.П.Толстов. Ўзбекистоннинг қадимги маданияти. Тошкент. –Фан. 1944, 5-бет.

¹⁹ Толстов С.П. Хорезмийская экспедиция 1939 г. //КСИИМК. VI. М. 1940 г

²⁰ Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. М., Изд-во МГУ 1948 г

²¹ Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. М., «Наука» 1969 г

²² Неразик Е.Е. К проблеме развития городов Хорезма. // Культура и искусства древнего Хорезма. М., «Наука»

²³ Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода. //ТХАЭЭ. Т. IV. М., Изд-во АН ССР 1981 г

²⁴ Воробьева М.Г., Лапиров-Скобло М.С., Неразик Е.Е. Археологические работы в Хазараспе в 1958-1960 гг.

//МХЭ. Выш. 6. М., Изд-во АН ССР. 1963 г

²⁵ Рапопорт Ю.А. Раскопки городища Шах Сенем в 1952 г.//ТХАЭЭ. т. 2. М., «Наука» 1958 г

²⁶ Рапопорт Ю.А. Космогонический сюжет на хорезмийских сосудах. //Средняя Азия в древности и средневековье. М-1977 г

²⁷ Рапопорт Ю.А., Трудновская С.А. Городище Гяур кала. //ТХАЭЭ. Т. 2. М., «Наука» 1958 г

²⁸ Рапопорт Ю.А., Лапиров-Скобло М.С. Раскопки дворцового здания на городище Калальтгр I в 1958 г. //МХЭ. Выш. 6. М., «Наука» 1963 г

²⁹ Вайнберг Б.И. Памятники куюсайской культуры. //Кочевники на границе Хорезма. ТХАЭЭ, т. XI. М., «Наука» 1979

³⁰ Вайнберг Б.И. Скотоводческие племена в древнем Хорезме. //Культура и искусство древнего Хорезма. М., «Наука» 1981 г

³¹ Вайнберг Б.И. О раскопках крепости Калалмъф 2. //АО 1985 г. М., «Наука» 1987 г

³² Мамбетуллаев М.М. Городище Большая Айбуир кала (Раскопки 1976-1977 гг.). Археология Приаралья. Внп. 4. Ташкент, «Фан».1990 г

³³ Мамбетуллаев М.М. История и культура Южного Хорезма античной эпохи (города и поселения). IV в. до н. э.-1У в. н. э. //АДА, Ташкент 1994 г

³⁴ Ягодин В.Н., Хелмс С.У., Ходжаниязов Г.Х.. О работах Ташкъфманской Международной археологической экспедиции 1995 г. //Вестник ККО АН РУз. № 3. 1996 г

³⁵ Ягодин В., Бетгс А. Ходжаниязов Г., Кидд Ф., Амиров Ш., Искендерова А. Археологические исследования на городище Казахльшткан (Акшахан).// Археологические исследования в Узбекистане 2004-2005 годъ Ташкент, «Фан» 2006 г


³⁶ Ходжаниязов Г. К изучению античных памятников Ташкърманского оазиса. //ТДМК. Генезис и пути развития процессов урбанизации Центральной Азии. Самарканд. 1995 г

³⁷ Ходжаниязов Г. К изучению комплекса Эрес кала (Армс кала). //ВКФ АН РУз. № 1. Нукус 1996 г

³⁸ Сабиров К.С. Оборонительные сооружения древних поселений и городов Средней Азии (У1-тмс. до н. э.-ГУ в н. э.). //АКД. М., «Наука» 1979 г

³⁹ Баратов С.Р. Археологические исследования на юге Хорезма в 2004-2005 годах. //Археологические исследования в Узбекистане, 2004-2005 годъ Ташкент 2006 г

⁴⁰ Mirzo Ulug'ek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. O'zbekiston tarixi 1-kitob. Oliy o'quv yurtlari tarix fakulteti talabalari uchun darslik. Toshkent "VNESHINVESTPROM" 2019-yil.





Antik davr Xorazm shaharlari, shaharsozligi va hunarmandchiligi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari haqida qisqacha va kerakli ma'lumotlarni berish lozim deb hisobladik.

Jonbosqal'a – Ushbu yodgorlik Bozorqal'aning shimoliy – sharqiy tomonida, ya'ni Kaltaminor kanalining shimolga qarab cho'zilgan Bozorqal'a irmoqlari bo'yida Jonbosqal'a joylashgan. Ya'ni, Sulton Uvays tog'ining sharqiy etagida, Aqchadaryo o'zanidagi qiyalikda qurilgan⁴¹.

1939-yilda S.P.Tolstov hamda arxitektorlar V.I.Pilyavskim va G.Ali Zoda bilan birgalikda Jonbosqalaning ichki tartibini batafsil kuzatganlar⁴². Buning natijasida ko'plab qimmatli ma'lumotlar qo'lga kiritilgan. Yodgorlik miloddan avvalgi IV asrga oid bo'lib, uning hajmi 200x170 m. Yodgorlik Qang'yuy davriga oid. Rejallashtirish jihatdan to'g'ri to'rtburchakli, qalinligi 5 m, balandligi 2-10 m. devor bilan o'rabi olingan. Qal'aga kirish uchun bitta darvoza bo'lgan⁴³. Bu yerda olov ibotxonasi ham bo'lganligi aniqlangan. Imorat o'rtasidagi supachada qurilgan o'choqda muqaddas o't doim yonib turgan⁴⁴.

Ko'zaliqir – Qadimgi ahamoniylar davrida shakllangan Xorazm davlatchiligi markazlaridan hisoblanadi. Ko'zaliqir yodgorligida arxeologik ishlarni mashhur arxeolog-olim S.P.Tolstov 1937-yildan boshlab olib borgan. Bu arxeologik yodgorlik hozirgi vaqtida Turkmaniston Respublikasi hududida joylashgan. Ahamoniylar sulolasi satraplarining shahar-qal'asi bo'lgan degan fikrlar bor. 1937, 1939, 1953, 1954-yillarda bu yodgorlik M.G.Vorobeva va S.P.Tolstov tarafidan ochilgan. Ko'zaliqir yodgorligi Xorazmning ilk antik davrida ahamoniylar hukmronligi vaqtida qurilgan ilk shahar bo'lishi kerak degan fikrlar bor⁴⁵.

Oqshaxonqa - Qazaqli yotgan Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanida mil.avv IV-III asrlar – milodiy IV asrlarga tegishli qadimgi poytaxt hisoblangan shahar-qal'a. Yodgorlik 1956-yil Xorazm ekspeditsiyasi olimlari tomonidan aniqlandi. 1982, 1985-yillarda arxealogik tekshiruv ishlari olib borildi⁴⁶.

Oqshaxon qal'ada 1995 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida qadimgi Xorazm shaharlarini tadqiq qilishning so'nggi bosqichi to'g'ri keladi. Xorazm Ma'mun akademiyasi va Urganch Davlat universiteti ilmiy xodimlari shu yillarda Olmaotishkan, Dashqal'a 2, Hazorasp va boshqa shaharlarni tekshirdilar⁴⁷⁴⁸

⁴¹ Толстов С.П. Древний Хорезм. М.,1948 г. С.88.

⁴² Древний Хорезм. 93-бет

⁴³ Xorazm tarixi 1-jild. Urganch 1997-yil. 91-bet

⁴⁴ Iso Jabborov. Ko'hna xarobalar siri. Toshkent 1961-yil. 52-bet

⁴⁵ Kidiriyazov M.Sh, Kidiriyazov O.Sh. Antik davr Xorazm sivilizatsiyasi tarixi. Nukus-2014-yil. 26-27-betlar

⁴⁶ Andrianov B.V. Drevnie orositelnie sistemi Priaralya. M; 1967 г

⁴⁷ Баратов С.Р. Археологические работы в Южном Хорезме. 2004 г

//Археологические исследования в Узбекистане, 2003 год. Ташкент.

⁴⁸ Баратов С.Р. Археологические исследования на южнэ Хорезма в 2004-2005 годах. //Археологические исследования в Узбекистане, 2004-2005 годъ Ташкент.2006 г





Zero, mamlakatimiz mustaqillikka erishganligi sharofati bilan bu borada chet ellik olimlar bilan birgalikda ishlashimiz uchun keng yo'l ochildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining Qoraqalpog'iston bo'limi Tarix arxeologiya va etnografiya instituti va Avstralaliyaning Sidney universiteti olimlari hamkorlikda arxeologik tadqiqotlar olib borishmokda⁴⁹. Yodgorlikni qazish natijasida qadimgi xorazmliklar yozuvi, rangli sur'atlar va qaimgi xorazmliklarning portretlar galereyasini topildi⁵⁰.

O'rta asrlar geograflarining yozishicha, Xorazmnинг qadim poytaxti Darjash deb atalgan, u Kat shahridan avval bunyod etilgan. Hozirgi kunda Darjash shahri Amudaryoning o'ng sohilida, Xorazm vohasida joylashgan Oqshaxonqal'a bilan bog'lanmoqda. Shahar to'rtburchak shakida bo'lib, qalin mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Devorlarning tashqi tomonida va burchaklarida burjlar joylashgan, devorlarning balandligi taxminan 12-13 metr dan iborat bo'lgan⁵¹.

Qo'yqirilganqal'a – Antik davr qang'yuy davri yodgorligi Qo'yqirilganqal'a hisoblanib, mil.avv IV-III milodiy I asrlarga tegishli. S.P.Tolstov tomonidan 1938 yilda aniqlangan bo'lib, 1951 yildan keng miqiyosda tadqiq ishlari o'tkazildi⁵². Ushbu yodgorlik janubiy-g'arbiy Oqchadaryo deltasi tekisliklarida, To'rtko'l shahridan 22 km Janubi-Sharqda, Ellikqal'a tumanida Eski Kaltaminor kanali yonida joylashgan.

Arxeolog oimlarning ma'lumotlariga ko'ra Qoyqinlganqal'ada odamlarning yashagan davri mil.avv. IV-III asrlardan milodiy III-IV asrlargacha dvom etgan. Bu shahar qadimgi xorazmshohlar davlatining ilmiy madaniy markazi bo'lgan. Yodgorlik to'g'risida dastlabki ma'lumotlarni S.P.Tolstovting⁵³ kitobida va monografiya⁵⁴da uchratamiz. Yodgorlikda 1937-yilda S.P.Tolstov, Y.G'. G'ulomov va E.A.Polyakovdan iborat arxealogiya guruhi qazishma ishlarini olib borganlar⁵⁵.

Yodgorlik aylana shaklida bulib, aylanasi 86 m, 5 m. qalinlikdagi devor bilan o'rab olingan, 9 minoraga ega. Qal'a markazida ikki qavatli silindr shaklida uy joylashgan, uning aylanasi 42m. Bu S.P.Tolstovning fikricha, sayyoralarini kuzatadigan joy bo'lgan. Shu bilan birga bu yodgorlik mayitlarni joylashtiradigan joy bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas. Chunki suyaklarni saqlaydigan, loydan qilingan ostadonlar ko'plab topildi. Ostodon va uning yuqori qismi hamda qopqog'i odam haykalchalar bilan bezatilgan. Bu yerda juda katta ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan

⁴⁹ Ягодин В.Н., Хелмс С.У., Ходжаниязов Г.Х.. О работах Ташхирманской Международной археологической экспедиции 1995 г. //Вестник ККО АН РУз. № 3. 1996 г

⁵⁰ I Promise N.Yagadin, Alison V.G. Beets, Fiona Kidd, Elizabeth Baker Brite, Chairat Chozhanyazov, S. Shamil Amirov, V.V. Very soon Geraldine Fray, Karakalpak-Australian excavations in Ancient Chorasmia. An Interim Report on the Kazakly-Makati Wali Paintings: The "Portrait" Gallery // Journal of Inner Asian Art and Archaeology # 4. Brepals, 2009.

⁵¹ Mirzo Ulug'ek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. O'zbekiston tarixi 1-kitob. Oliy o'quv yurtlari tarix fakulteti talabalari uchun darslik. Toshkent "VNESHINVESTPROM" 2019-yil. 246-bet

⁵² Толстов с.п. Кой-крылган-кала памятник культуры древнего Хорезма IVв до н.э.-IVвн.э. М., 1967 г.с.7.

⁵³ Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. М., Изд-во МГУ. 1948 г. 30-ст

⁵⁴ Толстов С.П., Итина М.А., Виноградов А.В. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция. //АО 1966 г. М., «Наука» 1967 г

⁵⁵ Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. М. 1948, Изд-во 30-ст





buyum topilgani. Ushbu buyum Miloddan avvalgi III-II asrga oid qadimgi Xorazm yozuvi bo'lib, u oramiy yozuvida tush bilan yozilgan. Bu obida ibodatxona yoki Xorazm zodagonining saroyi bo'lishi mumkin. Xorazmning gullab-yashnash davriga to'g'ri keladi⁵⁶.

Qo'yqirilganqal'adan ko'p miqdorda moddiy madaniyat buyumlari topilgan. Ayrim joylarda oziq-ovqat uchun mo'ljallangan ulkan idish xumlar topilgan. Idishlar sharob yoki don uchun foydalanilgan degan fikrlar mavjud. Qimmatbaho topilmalar orasida astronomiya fanida foydalanilgan yapaloq shakldagi disk ko'rinishli bo'laklar uchraydi. Ulardan 42 tasi topilgan. Bu buyum haqida Beruniy "Qonuni Mas'udiy" asarining IV kitobida "bular Ptolomey aytgan ikki xalqa" deb yozib qoldirgan⁵⁷. Bu esa ushbu buyumlarning yerli xalqlar tarixida antik davrdan beri ma'lum ekanligi bildiradi. Yodgorlik jahon xalqlari tarixida muhim ahamiyatga ega.

Qo'rg'oshinqal'a - Yodgorlikda 1937-yilda S.P.Tolstov, Y.G'. G'ulomov va E.A.Polyakovdan iborat arxealogiya guruhi qazishma ishlarini olib borganlar va topganlar⁵⁸. 1938 yilda S.P. Tolstov va YA.G'ulomovlar tomonidan ro'yxatga olingan. Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi tomonidan tekshirilgan. Qo'rg'oshinqal'adan uy-ro'zg'or buyumlari, hayvonlar rasmi solingan sopol bo'laklary va mis tangalar topilgan⁵⁹.

Yodgorlik Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani hududida joylashgan. Shahriston burchaklari olam taraflariga yo'nalgan 132 x 89 m o'lchamdag'i to'g'ri burchak shaklida. Qal'a har tarafdan (janubi-g'arbiy tarafdan tashqari) kvadrat shakldagi xom g'ishtdan ko'tarilgan proteyxizma bilan o'rabi olingan. U qal'a devori chetidan 9-10 m qochib turadi. Qal'aning janubi-g'arbida, proteyxizmadan uch metr masofada eni -5 m ga yaqin, chuqurligi hozir 1,50 m ga yaqin bo'lgan xandaq bo'lganligi aniqlandi⁶⁰.

Strategiya nuqtai nazaridan muhim joyni egallagan Qo'rg'oshinqal'a mil. avv. IV-III asrlarda yuzaga kelgan, aftidan, qadimgi Xorazm davlatining ichki hududlarini dasht qabilalarining shimoli-sharq tomonidan bo'ladigan hujumidan himoya qilgan. Qal'a mavjudligining ikkinchi bosqichida (I-III asrlar) adashtirma yo'lga janubi-sharkdan kirilgats. Bu yo'lning ichki bo'shlig'ida qum qatlami ustidan g'isht to'shalgan. Pandus barpo qilingan. Katta Qirqqiz kanalida suv yetishmasligi tufayli, aftidan, III-IV asrlar oxirida Qo'rg'oshinqal'a va uning atrofidagi qishloqlar bo'shab qolgan⁶¹.

Qal'a janubiy-g'arbiy tomonidan tashqari, har tomonidan to'siq devori bilan o'rabi olingan. Qal'a, taxminlarga ko'ra, Qadimgi Xorazm davlati ichki qismini dasht

⁵⁶ Xorazm tarixi 1-jild. Urganch 1997-yil. 91-bet

⁵⁷ Kidiriyyazov M.Sh, Kidiriyyazov O.Sh. Antik davr Xorazm sivilizatsiyasi tarixi. Nukus-2014-yil. 30-31-betlar

⁵⁸ Толстов С.П. Древний Хорезм. Опълг историко-археологического исследования. М., Изд-во МГУ. 1948. 30-ст

⁵⁹ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти Т 2005-yil, 5-Т., 446 б.

⁶⁰ G'ayratdin Xodjaniyazov. Qadimgi xorazm mudofaa inshootlari. Mil.avv VI asrdan milodiy IV asrgacha. Toshkent "O'zbekiston"; 2017-yil. 48-bet

⁶¹ Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. Ташкент, Изд-во АН УзССР. 1957. 109-ст





qabilalari bosqinidan himoya qilgan. Qal'aning nomi turkiy "qo'rg'oshin" so'zidan olingan deb hisoblanadi va ushbu modda, taxminlarga ko'ra, bu yerdan uzoq bo'limgan hudduddan qazib olingan⁶².

Kichik qirqizqal'a – Bu yodgorlik Ellikqal'a tumanida Buxan Merey Shirkat xo'jaligida joylashgan. Yodgorlik 1938-yil S.P.Tolstov tomonidan tekshirilgan. Yodgorlik g'arbiy va sharqi qismlardan iborat. G'arbiy bo'limning maydoni 80x70 m bo'lib, ikki devor bilan o'rabi olingan. Qo'rg'onning paydo bo'lishi IV-III asrlarga tegishli ekanligi aniqlangan⁶³

Bozorqal'a — Beruniy shahridan 40 km sharqda, Amudaryoning o'ng sohilidagi shaharqal'a xarobasi (milloddan avvalgi 6— 4-asrlar). S. P. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya etnografiya ekspeditsiyam topib o'rgangan (1938). Shahar to_g_ri to_rt burchak tarhli binolar paxsa va xom g_ishtdan qurilgan, nishon tuynukli (tirkash) va burjli qo'sh mudofaa devori bilan o_ralgan. Devorlar oralig_idagi yo_lakning eni 3 m. G_ishtlar 40x10 sm hajmda, maxsus tamg_ali bo_lgan. Qal'a (100x120 m) shaharning sharqi burchagida joylashgan. Bozorqal'a hududidan turar joy va kulolchilik ustaxonalarining qoldiqlari, sirli sopol idishlar, og'zi keng, chambari jimjimador, tagi yassi xum, tosh yorg'uchchoqlar, ostodonlar, qadimgi Misr xudosi Bes, odam va hayvonlar haykalchalari, zeb-ziynat buyumlari topilgan⁶⁴.

Nuzkat – Bozorqala'a Qo'yqirilganqal'adan keyin Tuproqqal'adan oldin qadimgi Qadimgi Xorazm davlatining poytaxti bo'lgan.⁶⁵ – deb ta'kidlaydi.

Qizil qal'a – Yodgorlik Beruniy shahridan 27 km sharqda yo'l bo'yida joylashgan. Yodgorlikda S.P.Tolstov tarafidan 1936-yil tekshirishlar olib borilib va yodgorlikni mil.avv IV-I-asrlarga oid deb hisoblagan. Keyingi yillarda G'.Xojaniyazov tomonidan olib borilgan arxeologik qazishmalarda yodgorlik 63x 63 m (kvadrat), o'lchamda, burchaklari bilan dunyo tomonlariga qaragani, qal'a devorlari ancha yaxshi saqlangani, ba'zi joylarda blandligi 13-16 metrga yetganligi aniqlangan⁶⁶.

Tuproqqal'a yodgorliklari – Xorazm vohasida 7 ta qadimgi qal'a Tuproqqal'a nomi bilan ataladi. Birinchisi mil. I-III asrlarga taalluqli bo'lib, Ellikqal'a tumani hududida (Qoraqalpog'iston Respublikasi); ikkinchisi mil. avv. IV-III asrlarga mansub bo'lib, Xorazm viloyatining Shovot tumani hududida, uchinchisi mil. avv. IV-III asrlarga taalluqli bo'lib, Xiva tumani hududida, to'rtinchisi ham mil. avv. IV-III asrlarga mansub bo'lib, Yangiariq tumanida, beshinchisi mil. avv. IV-III asrlarga taalluqli bo'lib, Xazorasp tumanida joylashgan, oltinchi va yettinchilar mil. avv. V-

⁶² karakalpakstan.travel/kurgashin-kala/?lang=uz

⁶³ Kidiriyazov M.Sh, Kidiriyazov O.Sh. Antik davr Xorazm sivilizatsiyasi tarixi. Nukus-2014-yil. 19-bet

⁶⁴ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти Toshkent-2005-yil. 466-bet

⁶⁵ Толстов С.П. Древний Хорезм. М., Наука.,1948.С.112.

⁶⁶ G'ayratdin Xodjaniyazov. Qadimgi xorazm mudofaa inshootlari. Mil.avv VI asrdan milodiy IV asrgacha. Toshkent "O'zbekiston" 2017-yil.53-bet





IV-III asrlarga mansub bo'lib Turkmaniston Respublikasi Toshhovuz viloyati hududida joylashgan⁶⁷.

Tuproqqa'l'a. Bu qal'a Ellikkal'a tumani hududida joylashgan. U to'g'ri burchak shaklida b'lib, 500x350 m, ya'ni 17,5 g maydonga ega. Qal'a ikki qatorli paxsa devor bilan o'rab olingan. Unda to'g'ri burchakli shinaklar mavjud. Shimoliy-g'arbiy qismida saroy joylashgan. Shaharning ichki qismi 8-10 mahallaga bo'lingan. Yodgorlik 1935-1940, 1946-1950, 1965-1967-yillarda arxeologik jihatdan tekshirilgan.

Arxeologik tadqiqotlar shahar saroyida olib borildi. Bu yerda bir qancha katta va kichik uy xonalari topildi. Bu xonalardan topilgan ashyolarga qarab xonalarni nomladilar. Masalan, "podsho zali", "askar zali", "galaba zali", "bug'ular zali" va boshqalar. Bu yodgorlikdan teri va yog'ochga bitilgan 120 ga yaqin qadimgi Xorazm tilidagi yozuv topildi. Shahar milodiy III asrda bunyod etilib, Xorazmshohlar davlatining poytaxti bo'lgan⁶⁸.

Tuproqqa'l'a - Shovot tumani hududida joylashgan. Unda arxeologik qazish ishlari 1958- 1960, 1973-1974, 1979-80 yillarda olib borildi. Shahar aylana shaklda bo'lib, uning hajmi 260 m, ichki devori tomonidagi umumiy maydoni 4 hektar. Qadimga mudofaa devori bilan o'rab olingan, hozirgacha saqlanib qolgan devor balandligi 0/7-3 m. ni tashkil etadi. Devorda yarim aylanali burjlar (24 ta) saqlanib qolgan, ular o'rtasidagi masofa 22-30 m. Devorga yaqin joydan kengligi 32-42- m. xandaq utgan, burjlarning radiusi 6,25 m. Mudofaa devori va minora to'rt tomoni kvadrat shaklidagi xom g'isht bilan tiklangan 40x40x10, 41x41x12m. Shaharning qurilish va rivojlanishi miloddan avvalgi IY-III asrlar bilan belgilangan⁶⁹.

Tuproqqa'l'a - Xiva shahridan 17 km.shimoli g'arbda joylashgan. Bu qal'a yodgorliklarini o'rganish ishlari 1958-1960, 1973-1974 yillara olib borildi. Qal'a to'g'ri burchakli shaklda bo'lib, uning hajmi 167-169-170 m. Tuzilishi jihatidan to'rt tomoni teng. Shahar ikki qatorli devor bilan o'ralgan, o'rtada daxliz mavjud. Devor burjlarga ega bo'lib ular devordan yon tomonga 5,2 m .o'sib chiqib, uning kengligi 7 m.ni tashkil qiladi. Shahar yagona darvozaga ega bo'lib, murakkab qurilma bilan mustahkamlangan. Qurilma oldinga 11,5 m.o'sib chiqqan, shaharga yaqin joydan kengligi 23-27 m. xandaq o'tgan. Yodgorlik miloddan avvalgi IY-III asrlarga taalluqli⁷⁰.


Yangiariq Tuproq qal'asi. Yangiariq tumanida joylashgan. Yodgorlik to'g'ri burchak shaklda bo'lib, umumiy maydoni 3,5 g maydonni tashkil qiladi. Shahar-qal'a qadimga ikki devor bilan o'rab olingan. Saqlanib qolgan devorning balandligi 1,5 m bo'lib, to'rtta minoraga ega, ular orasidagi maydon 17-22 m, devorning yon tarafga chiqishi 5-6 m. bo'lgan minoralar bor. Yodgorlik mil.avv IV-II asrlarga tegishli.

⁶⁷ G'ayratdin Xodjaniyazov. Qadimgi xorazm mudofaa inshootlari mil.avv VI asrdan milodiy IV asrgacha. Toshkent "O'zbekiston" 2017-yil. 23-bet

⁶⁸ Xorazm tarixi 1-jild. Urganch-1997-yil. 96-bet

⁶⁹ Xorazm tarixi 1-jild. Urganch-1997-yil. 91-bet

⁷⁰ Xorazm tarixi 1-jild. Urganch-1997-yil. 92-bet





Shahar qadimda ikkita devor bilan mustahkamlangan, ularga qo'shimcha solingan minoralar shahar mustahkamligini oshirgan. Arxealogik topilmalar ilk Kang'yuy davriga to'g'ri keladi va bu topilmalar Qo'yqilganqal'a buyumlariga o'xhash bo'lgan. Bu qadimiy yodgorliklardan boshqa Ustyurtda Oq shungil (Qo'ng'iroq tumani), Dev keskan, Turkmanistonda Toshhovuz atrofida (wa'layati) Shoh-Sanam, Chermen yop, Ko'hna qal'a va boshqa antik davr sivilizatsiyasiga oid shahar yodgorliklari mavjud.

Aytishimiz mumkinki, S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi, Xorazm Ma'mun akademiyasi (Xiva) va O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi arxeologlari Qoraqalpog'istonda, Toshhovuz viloyati, Amudaryoning o'ng, chap tomonlarida (avvalgi antik davr Xorazm hududi) XX asr 70-yillariga kelib 250 dan ortiq qadimiy qal'a va qo'rg'onlar aniqlangan. Moskvalik olim Yu.A.Rapoport 1998-yil nashr qilgan maqolasida chap va o'ng qirg'oq yerlarda 400 ga yaqin antik davr qo'rg'onlar bo'lgan degan fikrni yozgan⁷¹.

Shaharsozlik va me'morchilik. Antik davrda Xorazm O'rta Osiyoda shaharsozlik va me'morchilik keng rivojlangan muhim markazga aylandi. Ahamoniylar (Fors) podsholigi tarkibidan chiqib, davlat mustaqilligiga erishgan qadimiy Xorazmda dehqonchilik voha-tumanlarining tashqi sarhadlari harbiy istehkomlar bilan mustahkamlandi. Davlat chegaralarida hamda savdo karvonlari o'tadigan maskanlarda qal'alar qurildi. Ular qudratli mudofaa inshootlari bo'lib. alohida burjlar va devorlar ichidagi o'qchilar uchun mo'ljallangan ikki qavatli maxsus yo'laklardan iborat bo'lgan.

Eramizdan avvalgi IV-I asrlar qadimgi Xorazmning gullab-yashnagan davri bo'lib, bu davrga oid yodgorliklar juda ham ko'p va xilma-xildir. Xorazmning antik davrdagi shaharlarining deyarli barchasi vohani dashtdagi qo'shni qabilalardan mudofaa qilish maqsadida qurilgan⁷².

Mil. avv. IV-III asrlarda Xorazm davlati hukmdorlari tomonidan mudofaa inshootlarining barpo etilishi sabablari tashqi bosqinlardan himoyalanish zaruriyati bilan bog'langan.

Mil. avv. IV asrda qadimgi Xorazmning bir qator shaharlarida (Xiva, Xazorasp, Qazaqliyorotgan – Oqshaxonqal'a, Katta Oybo'yirqal'a) yirik binokorlik ishlar amalga oshirildi. Bir vaqtning o'zida keng tarmoqli sug'orish tizimi yaratildi. Shaharlar alohida dehqonchlik voha-tumanlari markazlariga aylandi⁷³.

Me'morchilik loyiha bo'yicha shaharlarda binokorlik ishlarini amalga oshirish, mudofaa tizimi va eski binolarni ta'mirlash, yangilarni bunyod etish, qurilish texnologiyalarni takomillashtirishni taqozo etgan. Qudratli mudofaa inshootlari,

⁷¹ Kidiriyazov M.Sh, Kidiriyazov O.Sh. Antik davr Xorazm sivilizatsiyasi tarixi. Nukus-2014-yil. 47-bet

⁷² Mirzo Ulug'ek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. O'zbekiston tarixi 1-kitob. Oliy o'quv yurtlari tarix fakulteti talabalari uchun darslik. Toshkent "VNESHINVESTPROM" 2019-yil. 244-bet

⁷³ Mirzo Ulug'ek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. O'zbekiston tarixi 1-kitob. Oliy o'quv yurtlari tarix fakulteti talabalari uchun darslik. Toshkent VNESHINVESTPROM 2019-yil. 245-bet





yirik ibodatxona va saroylarni bino qilish uchun millionlab xom g'isht kerak bo'lgan. Davlatning barcha voha-tumanlari alohisi xom g'isht tayyorlash bilan mashg'ul bo'lib, ularni zarur yangi qurilish joylariga yetkazib bergen. Keng miqyosda bunday ishlarni tashkillashtirish va amalga oshirish, antik davr Xorazmda ommaviy ravishda yirik sug'orish inoshootlari - kanallarni barpo etish jarayoni bilan qiyoslash mumkin⁷⁴.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan Xorazmlarning asosiy tirikchilik manbayi dehqonchilik va chorvachilik bo'lgan. Vohaning qulay geografik sharoitida rivojlangan ziroatchilik sun'iy sug'orishga asoslangan. Qadimiy uy-qo'rg'onlarning atroflaridagi bog'lar, tokzodlar va dala-sug'orish yerlari keng maydonlarga ega bo'lgan.

Xususan, mil. avv. IV-II asrlarda Xorazmda ulkan sug'orish tizimi barpo etiladi. Antik davrdan avval xorazmliklarda bunday tizim yaratish imkoniyatlari bo'lмаган. Amudaryodan kanal chiqarish usullari ancha takomillashib, antik davri sug'orilishi dastlabki sug'orma ziroatchilikdan sezilarli farqlanib, uzunligi 40-50 km kanallar vujudga kelgan. Keng tarmoqli sug'orish tizimini barpo etish markazlashgan davlat hokimiyati tomonidan tashkillashtirilgan⁷⁵.

Xorazmliklar bug'doy, arpa va tariq ekib, bog'dorchilik bilan ham shug'ullanganlar. Manzilgohlar atrofida ekin maydonlari 200-250 hektar yerlarni tashkil etib, tokzorlar ham keng dalalarni egallagan. Antik davrda Xorazm vohasida Parfiya, Marg'iyona va Baqtriya singari vino (sharob) ishlab chiqarishga katta ahamiyat berilgan. Ayrim qishloq xo'jalik omborxonalaridagi katta xumlarda ko'p miqdorda vino saqlangan. Uning asosiy qismi tashqi savdoga mo'ljallangan⁷⁶.

Xorazmning antik davri tarixida ibodatxonalar mavqeい baland edi. Yangi ma'lumotlarga ko'ra, ibodatxona jamoasi kohinlar va xizmatchilardan iborat bo'lib, o'z yer mulklari, chorva mollari va hunarmandchilik ustaxonalariga egalik qilgan. Yozma manbalardan ma'lumki, kohinlar o'qimishli bo'lib, ularsiz biron katta mas'uliyathi ish boshlash mushkul edi. Kohinlar dehqonchilik ishlarini boshlash, hosilni yig'ishtirib olish muddatini aniq bilishgan. Diniy marosimlar jarayonlarini kohinlarsiz tasavvur qilish qiyin, shuningdek, ular davlat boshqaruvida faol ishtirot etganlar⁷⁷.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


- Mirzo Ulug'ek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. O'zbekiston tarixi 1-kitob. Oliy o'quv yurtlari tarix fakulteti talabalari uchun darslik. Toshkent "VNESHINVESTPROM" 2019-yil.

⁷⁴ Shu manba. 245-bet

⁷⁵ Shu manba. 247-bet


⁷⁶ Shu manba. 248-bet

⁷⁷ Shu manba. 249-bet





2. G'ayratdin Xo'janiyazov. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari. Mil.avv VI asrdan milodiy IV asrgacha. Toshkent "O'zbekiston" 2007-yil.
3. Ходжаниязов Г. К изучению античных памятников Ташхирманского оазиса. //ТДМК. Генезис и пути развития процессов урбанизации Центральной Азии. Самарканд. 1995 г
4. Ходжаниязов Г. К изучению комплекса Эрес кала (Армс кала). //ВКФ АН РУз. № 1. Нукус 1996 г
5. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти Toshkent 2005-йил
6. Kidiriyazov M.Sh, Kidiriyazov O.Sh. Antik davr Xorazm sivilizatsiyasi tarixi. Nukus-2014-yil.
7. Xorazm tarixi 1-jild. Urganch 1997-yil.
8. Исо Жабборов. Древний Хорезм – страна высокой культуры и уникальной духовности (Этно-исторические очерки). Москва 2014
9. Мамбетуллаев М.М. Городише Большая Айбуйир кала (Раскопки 1976-1977 гг.). Археология Приаралья. Внп. 4. Ташкент, «Фан».1990 г
10. Мамбетуллаев М.М. История и культура Южного Хорезма античной эпохи (города и поселения). IV в. до н. э.-IУ в. н. э. //АДА, Ташкент 1994 г
11. Kidiriyazov M.Sh, Kidiriyazov O.Sh. Antik davr Xorazm sivilizatsiyasi tarixi. Nukus-2014-yil.
12. Сабиров К.С. Оборонительные сооружение древних поселений и городов Средней Азии (У1-тмс. до н. э.-ГУ в н. э.). //АКД. М., «Наука» 1979 г
13. ТОЛСТОВ, 1939-Толстов С.П. Древнекорезмийские памятники в Каракалпакии (Предварительные итоги археологических работ ИИМК АН СССР и ККАССР в 1938 г.). //ВДИ. № 3
14. Толстов С.П. Хорезмийская экспедиция 1939 г. //КСИИМК. VI. М. 1940 г
15. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. М., Изд-во МГУ 1948 г
16. Толстов с.п. Кой-крылган-кала памятник культуры древнего Хорезма IVв до н.э.-IVвн.э. М.,1967 г.
17. Толстов С.П., Итина М.А., Виноградов А.В. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция. //АО 1966 г. М., «Наука» 1967 г
18. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. М., Изд-во МГУ. 1948.
19. С.П.Толстов. Ўзбекистоннинг қадимги маданияти. Тошкент. –Фан. 1944.
19. Пьянков И. В. Хорасмий Гекатая Милетского. //ВДИ. № 2. М., «Наука»1972 г
21. Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. М., «Наука» 1969 г





22. Неразик Е.Е. К проблеме развития городов Хорезма. // Культура и искусства древнего Хорезма. М., «Наука» 1981 г
23. Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода. //ТХАЭЭ. Т. IV. М., Изд-во АН ССР 1981 г
24. Воробьева М.Г., Лапиров-Скобло М.С., Неразик Е.Е. Археологические работы в Хазараспе в 1958-1960 гг. //МХЭ. Выш. б. М., Изд-во АН СССР. 1963 г
25. Рапопорт Ю.А. Раскопки городища Шах Сенем в 1952 г./ТХАЭЭ. т. 2. М., «Наука» 1958 г
26. Рапопорт Ю.А. Космогонический сюжет на хорезмийских сосудах. //Средняя Азия в древности и средневековье. М-1977 г
27. Рапопорт Ю.А., Трудновская С.А. Городище Гяур кала. //ТХАЭЭ. Т. 2. М., «Наука» 1958 г
28. Рапопорт Ю.А., Лапиров-Скобло М.С. Раскопки дворцового здания на городище Калалътгир I в 1958 г. //МХЭ. Выш. б. М., «Наука» 1963 г
29. Вайнберг Б.И. Памятники куюсайской культурн. //Кочевники на границе Хорезма. ТХАЭЭ, т. XI. М., «Наука» 1979
30. Вайнберг Б.И. Скотоводческие племена в древнем Хорезме. //Культура и искусство древнего Хорезма. М., «Наука» 1981 г
31. Вайнберг Б.И. О раскопках крепости Калалмгъф 2. //АО 1985 г. М., «Наука» 1987 г
32. Ягодин В.Н., Хелмс С.У., Ходжаниязов Г.Х.. О работах Ташкъфманской Международной археологической экспедиции 1995 г. //Вестник ККО АН РУз. № 3. 1996 г
33. Ягодин В., Бетгс А. Ходжаниязов Г., Кидд Ф., Амиров Ш., Искендерова А. Археологические исследования на городище Казахльшткан (Акшахан).// Археологические исследования в Узбекистане 2004-2005 годъ Ташкент, «Фан» 2006 г
34. Баратов С.Р. Археологические исследования на юге Хорезма в 2004-2005 годах. //Археологические исследования в Узбекистане, 2004-2005 годъ Ташкент 2006 г
35. Andrianov B.V. Drevnie orositelnie sistemi Priaralya. M; 1967 г
36. Баратов С.Р. Археологические работм в Южном Хорезме. 2004 г
37. Археологические исследования в Узбекистане, Ташкент 2003 год.
38. Баратов С.Р. Археологические исследования на южнэ Хорезма в 2004-2005 годах. //Археологические исследования в Узбекистане, 2004-2005 годъ Ташкент.2006 г
39. Ягодин В.Н., Хелмс С.У., Ходжаниязов Г.Х.. О работах Ташхирманской Международной археологической экспедиции 1995 г. //Вестник ККО АН РУз. № 3. 1996 г
40. I Promise N.Yagadin, Alison V.G. Beets, Fiona Kidd, Elizabeth Baker Brite, Chairat Chozhanyazov, S. Shamil Amirov, V.V. Very soon Geraldine Fray, Karakalpak-





Australian excavations in Ancient Chorasmia. An Interim Report on the Kazakly-Makati Wali Paintings: The "Portrait" Gallery // Journal of Inner Asian Art and Archaeology # 4. Brepals, 2009.

41. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. Ташкент, Изд-во АН УзССР. 1957.

42. karakalpakstan.travel/kurgashin-kala/?lang=uz

